

Date: 1st August-2026

QIPCHOQLAR URUG'I — TURKIY MEROS BIRLIGI

Temirbaeva Tumaris Tleubaevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Qipchoq urug'larining tarixiy ildizlari, madaniyati va ularning turkiy xalqlar orasidagi merosiy o'rni yoritiladi. Qipchoqlar o'z davrida Yevrosiyo dashtlarida muhim siyosiy va madaniy rol o'ynagan bo'lib, ularning tili, urf-odatlar hamda ijtimoiy tuzilmasi turkiy merosning ajralmas qismidir.

Kalit so'zlar: Qipchoqlar, tarixiy meros, etnik birlik, ko'chmanchi madaniyat, qadimgi turkiy urug'lar, bozoklar va uchoklar, turkiy dunyo, qipchoq dashti, til va madaniyat birligi, O'rta asrlar tarixi, qangli va qipchoq aloqalari, turkiy migratsiyalar

Аннотация: В статье рассматриваются исторические корни, культура и наследие кипчакских племен среди тюркских народов. В свое время кипчаки играли важную политическую и культурную роль в евразийских степях, а их язык, обычаи и социальная структура являются неотъемлемой частью тюркского наследия.

Ключевые слова: Кыпчаки, историческое наследие, этническое единство, кочевая культура, древнетюркские племена, бозоки и учоки, тюркский мир, кыпчакская степь, единство языка и культуры, средневековая история, канглы и кыпчакские отношения, тюркские миграции

Abstract: This article examines the historical roots, culture, and heritage of the Kipchak tribes among the Turkic peoples. The Kipchaks played an important political and cultural role in the Eurasian steppes during their time, and their language, customs, and social structure are an integral part of the Turkic heritage.

Key words: Kipchaks, historical heritage, ethnic unity, nomadic culture, ancient Turkic tribes, Bozoks and Uchoks, Turkic world, Kipchak steppe, unity of language and culture, medieval history, kangly and kipchak relations, Turkic migrations

Qipchoqlar o'rta asrlarda Yevrosiyo dashtlarida yashagan eng yirik turkiy qabila uyushmalaridan biri bo'lib, IX–XIII asrlarda Dashti Qipchoq hududining siyosiy va etnik hayotida muhim o'rin tutgan. Ularning tarixi nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Volgabo'yi va Yaqin Sharq tarixining ajralmas qismidir. Qipchoqlar ko'plab davlatlar va xalqlarning etnik shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bugungi qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, no'g'ay hamda o'zbek xalqining etnik tarkibida ham qipchoq unsurlari muhim o'rin egallaydi. Qipchoqlarning kelib chiqishi masalasi tarixshunoslikda hanuz bahsli mavzulardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar ularning ilk vatani Oltoy va Irtish havzalari bo'lganligini qayd etadilar. VIII asrga oid Moyun Chur bitiklarida "Turk-Qipchoq" nomining uchrashi qipchoqlarning Turk xoqonligi tarkibidagi o'rnini ko'rsatadi. Qipchoq etnonimining kelib chiqishi yuzasidan ham turli ilmiy qarashlar mavjud bo'lib, ayrim olimlar uni qadimgi turkiy til bilan bog'lasalar, boshqalari geografik



Date: 1st August-2026



muhit yoki tabiiy sharoit bilan izohlaydilar. Turk tilining tarixiy lugʻatlarida “qipchoq” “soʻzi ekislik”, “taqir yer” yoki “daraxt kovagi” maʼnolarida ham uchraydi va shu sababli ham etnonimning asl kelib chiqishi masalasida hozircha yagona ilmiy xulosa mavjud emas. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar qipchoqlar tarkibiga turkiy boʻlmagan, jumladan, para-moʻgʻul kelib chiqishiga ega ayrim qabilalar ham qoʻshilganligini taʼkidlaydilar. Piter Goldenning fikricha, Lyao davlati qulaganidan keyin gʻarbga siljigan ayrim qabilalar Sharqiy Qipchoq konfederatsiyasi tarkibiga kirib, keyinchalik uning siyosiy elitasida muhim mavqega ega boʻlgan. Turk xoqonligi parchalangach, qipchoqlar Kimek konfederatsiyasi tarkibiga qoʻshildilar va IX asrda arab geografi Ibn Xurdodbeh ularni Kimek ittifoqidagi muhim qabilalardan biri sifatida tilga oldi va X asrga kelib esa qipchoqlar Kimek konfederatsiyasining siyosiy hayotida yetakchi mavqega erisha boshladilar. XI asrda qipchoqlarning gʻarbga koʻchishi natijasida ulkan Dashti Qipchoq hududi shakllandi. Bu hudud Irtish daryosidan Dunaygacha choʻzilib, oʻrta asrlar tarixida muhim geosiyosiy makonga aylandi. Gʻarb manbalarida qipchoqlar koʻpincha “kumanlar” yoki “polovetslar” nomi bilan tilga olinadi. Zamonaviy tarixshunoslikda kuman va qipchoqlar oʻrtasidagi munosabatlar yuzasidan turli qarashlar mavjud boʻlsa-da, XII asrga kelib ular yagona siyosiy konfederatsiya sifatida faoliyat yuritganligi qayd etiladi. XIII asr boshlarida moʻgʻullar istilosi qipchoqlar tarixida tub burilish yasadi, avvaliga ular alanlar va rus knyazliklari bilan ittifoq tuzib moʻgʻullarga qarshi kurashdilar, biroq Kalka daryosi jangida magʻlubiyatga uchradilar. 1236-1241-yillardagi yurishlardan soʻng Dashti Qipchoq hududi Moʻgʻullar imperiyasi tarkibiga kiritildi, qipchoqlarning katta qismi Oltin Oʻrda aholisi tarkibiga singib ketdi, ayrim guruhlar esa Vengriya, Bolqon va Kavkaz hududlariga koʻchib bordilar. Vengriya qiroli Bela IV qipchoqlarga boshpana bergani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Qipchoqlar qipchoq turkiy tilida soʻzlashganlar va bu til oʻrta asrlarda xalqaro muloqot vositalaridan biri boʻlib xizmat qilgan. Qipchoq tilining eng mashhur yozma yodgorligi XIII–XIV asrlarda yaratilgan **Codex Cumanicus** hisoblanadi, ushbu asar lotin, fors va qipchoq tillaridagi lugʻat hamda grammatik maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Misr mamluklari davrida ham qipchoq tiliga oid koʻplab lugʻatlar va grammatik asarlar yaratilgan. Shuningdek, Ukraina va Polsha hududlariga koʻchib borgan arman jamoalari ham uzoq vaqt qipchoq tilidan yozma va ogʻzaki muloqot vositasi sifatida foydalanganlar. Qipchoqlarning Movarounnahrda ommaviy koʻchib kelishi asosan XVI–XVII asrlarda Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davrida yuz berdi. Keyinchalik Jungʻor bosqinlari natijasida ularning yana bir qismi Zarafshon vodiysi, Toshkent vohasi va Fargʻona vodiysiga koʻchib keldi. XVIII asrga kelib qipchoqlar qora qipchoq, sariq qipchoq, xitoy qipchoq va qulon qipchoq kabi yirik guruhlariga boʻlingan boʻlib, har biri oʻz navbatida koʻplab urugʻlarga ajralgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qipchoqlarning asosiy qismi Fargʻona vodiysi, Zarafshon vodiysi, Toshkent vohasi, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm hududlarida istiqomat qilgan. Ular chorvachilik bilan bir qatorda dehqonchilik bilan ham shugʻullanganlar. Statistik maʼlumotlarga koʻra, XX asr boshlarida Oʻzbekiston hududida 120 mingdan ortiq qipchoq yashagan.

Date: 1st August-2026

Keyinchalik ular mahalliy o'zbek va qirg'iz aholisi bilan faol etnik integratsiyalashib, yagona xalq tarkibiga singib ketganlar. Bugungi kunda qipchoq urug'lari o'zbek xalqining ko'plab hududlarida saqlanib qolgan bo'lib, ularning ayrim urug' nomlari tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Xulosa qilsak, qipchoqlar o'rta asrlar Yevrosiyo tarixida muhim o'rin tutgan yirik turkiy qabila ittifoqi hisoblanadi, va ular Turk xoqonligi va Kimek konfederatsiyasi tarkibidan boshlab Dashti Qipchoqning siyosiy hukmdorlariga aylanishgacha bo'lgan murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganlar. Mo'g'ullar istilosidan keyin qipchoqlar turli davlatlar va xalqlar tarkibiga singib ketgan bo'lsalar-da, ularning tili, madaniyati va etnik merosi bugungi turkiy xalqlar shakllanishida muhim iz qoldirdi. Qipchoqlar merosi nafaqat qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tatar va no'g'ay xalqlari, balki o'zbek xalqining etnik va madaniy taraqqiyotida ham muhim omil bo'lib xizmat qilgan, shu sababli qipchoqlar tarixini chuqur o'rganish Markaziy Osiyo va umuman turkiy dunyo tarixini to'liq anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoniyozov, K. Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent: Sharq, 2021.
2. Shoniyozov, K. Sh. Qarluq davlati va qarluqlar. Toshkent: Fan, 2023.
3. Asqarov, A. A. O'bek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent: Universitet, 2007.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 11-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. ("Qipchoq" maqolasi).

